

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI ERTA YOSH DAN MATNNI O'QIB TUSHUNISHGA TAYYORLASH USULLARI

Boyjigitov Shuxrat Absamatovich

Ilmiy rahbar: [Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi](#)
shuxratboyjigitov240@gmail.com

Toshkanova Shaxnoza Ilxomovna

Talaba: [Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi](#)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20504964>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini erta yoshdan matnni o'qib tushunishga tayyorlashning zamonaviy pedagogik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda o'quvchilarning matnni anglash jarayonida tasavvur, emotsional idrok, vizual tafakkur va muloqot muhitining o'rni tahlil qilinadi. Maqolada an'anaviy o'qish usullaridan farqli ravishda "mazmuniy kutish", "rasimli fikrlash", "mikro-dialogli o'qish" hamda "ovozli tasvirlash" metodlari tavsiya etiladi. Shuningdek, bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishini tabiiy qiziqish va hissiy yaqinlik asosida rivojlantirish g'oyasi ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, matnni tushunish, o'qish savodxonligi, vizual tafakkur, mikro-dialog, emotsional idrok, mazmuniy kutish, interfaol metodlar, o'qishga tayyorlash

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные педагогические основы подготовки учащихся начальных классов к осознанному чтению текста с раннего возраста. Анализируется роль воображения, эмоционального восприятия, визуального мышления и коммуникативной среды в процессе понимания текста. В отличие от традиционных методов чтения предлагаются такие инновационные подходы, как «смысловое ожидание», «образное мышление», «микродialogовое чтение» и метод «звукового описания». Также выдвигается идея развития интереса к чтению через естественную мотивацию и эмоциональную близость.

Ключевые слова: начальное образование, понимание текста, читательская грамотность, визуальное мышление, микродialog, эмоциональное восприятие, смысловое ожидание, интерактивные методы, подготовка к чтению

Abstract: This article discusses modern pedagogical approaches to preparing primary school students for reading comprehension from an early age. The study analyzes the role of imagination, emotional perception, visual thinking, and communicative environment in the process of text comprehension. Unlike traditional reading methods, innovative approaches such as "semantic anticipation," "visual thinking," "micro-dialogic reading," and the "auditory description" method are recommended. The article also promotes the idea of developing children's interest in reading through natural motivation and emotional engagement.

Keywords: primary education, reading comprehension, reading literacy, visual thinking, micro-dialogue, emotional perception, semantic anticipation, interactive methods, reading readiness

Kirish: Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — o'quvchini nafaqat o'qishga, balki o'qiganini anglashga o'rgatishdir. Chunki matnni tushunish bolaning keyingi bilim olish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab hollarda o'quvchi harflarni to'g'ri o'qiydi, biroq mazmunni chuqur anglay olmaydi. Bu esa o'qishga mexanik jarayon sifatida qaralishi bilan bog'liq. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ta'lim tizimida

yoshlarxususidan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning umumiyrivojlanishi – axborotlar oqimi asnosida bilimi, texnika vateknologiyalar ko'magida intellektual imkoniyatlari, dunyoqarashining nisbatan tez boyib-kengayib borishi umumiy pedagogika va xususiy metodika sohalarida ham ko'tarilish yuzberishini, o'qitish mazmuni va metodlariga o'zgartirishlar kiritilishinetaqozo etmoqda. Shularga bog'liq holda boshlang'ich adabiy ta'limmetodikasini takomillashtirib borish ham davr talabidir. Boshlang'ichsinflar adabiy ta'limida takroriy bayon qilish mashqlarini kamaytirish, ijodiy va o'qilgan matn yuzasidan o'z fikrini bayon qilishko'nikmasini o'stiradigan mashqlarni ko'paytirish, asar qismlari vayaxlit matn ustida ishlanadigan jarayonni kengaytirish, badiiy bitikmazmuni va obrazlari ustida ishlashda o'quvchilarning mustaqilliginioshirish, matnlarning didaktik tahlilida xilma-xil topshiriq turlariniyaratish, ta'limda texnika vositalari va ilg'or pedagogiktexnologiyalardan maksimal darajada foydalanish maqsadgamuvofiqdir. Erta yoshda bolalarda matnni tushunishga tayyorgarlik shakllanishida oilaviy muhit, eshitish madaniyati, tasviriy tafakkur va emotsional munosabat muhim o'rin egallaydi. Shu sababli bugungi boshlang'ich ta'limda o'qishni faqat tovush va bo'g'in bilan emas, balki mazmunni his qilish orqali o'rgatish zarurati ortib bormoqda. Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi. Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola orginizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, Abdulla Avloniyilar ham bolani tarbiyalashda yosh xususiyatlarini inobatga olishzarurligini uqtirib o'tganlar. Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin. Kichik yoshdagi o'quvchilarning ko'pchiligi o'qituvchisi aytganlarini quloq qoqmay bajaradi va doimiy ravishda uningko'rsatmalarini kutishga moyil bo'ladi. O'qituvchi qanday va nimanio'qitishidan qat'i nazar, uni bilib olish kerak deb hisoblaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nazarida o'qish – ko'r-ko'ronaijrochilik, o'qituvchisiga taqlid, ustoz aytganlarini takrorlashdaniboratday tuyuladi. Mazkur davr pedagogik jihatdan bolada insoniysifatlarni shakllantirishda o'qituvchi uchun eng qulay bosqichsanaladi. Bu o'rinda o'qituvchi oqil, dono bo'lsa xo'p-xo'p, aksibo'lsa...Inson ichida erkin "men"i, mustaqil fikri bo'lgandagina o'zso'zini aytadi. Fikr – ichki "men" faoliyatining mahsuli. Shakllanibkelayotgan shaxsda o'zlikni anglash, uning o'z so'zi va mustaqil fikrbo'lishini ta'minlash, bunga sharoit yaratish maktabda o'qituvchiningvazifasi hisoblanadi. Bu undan professional bilimdonlikni talab qiladi. Chunki o'quvchining aniq maqsad asosida oldiga qo'yilganvazifalarni bajarish yo'lida mantiqiy mulohaza yuritish, qo'yilgan masalani muayyan zo'riqishlar orqali mustaqil ravishda hal qilishdayfaoliyatini tashkil etish oson ish emas. Boshlang'ich sinflar tarbiyalanuvchilarida shaxslik sifatlarinishakllantirish o'rta va yuqori sinflardagiga nisbatan ancha farqlikechadi. Bu yoshdagi bolaning hayotiy tajribasi kam va u xulosa chiqarishni bilmaydi. U ko'proq taqlid qiladi. Boshlang'ich sinflardaamalga oshiriladigan ta'lim va tarbiya jarayoni bolalarning yoshi,intellektual imkoniyatlariga mos holda xulosa chiqarishga emas, fikraytishga, munosabat bildirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Shusabab boshlang'ich sinf o'qituvchisining vazifasi darsda masalanito'g'ri qo'ya bilish, o'quvchini qiziqitira olish, uning tuyg'ularinibezovta qila bilishdan iborat.

Bola o'z bilimi va tajribasida ko'rilmagan vaziyat bilanto'qnashganda hamda bu vaziyat uni qiziqtirib qolgandag'ayriixtiyoriy ravishda mustaqil fikrlay boshlaydi, erkin faoliyatgakirishadi. Ma'lumki, qiziqqan bola masalaning mohiyatiga kirmay, o'zistaklarini, bilish ehtiyojini qondirmay

qo'ymaydi. Faqat bolanibunday holatga solishdan avval uni asta-sekinlik bilan taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, aniqlik kiritish, tizimga sola bilish kabiko'nikmalarni egallashiga erishish lozim. Shundagina uning bilish faoliyati muayyan samara keltirib, shaxsi to'g'ri shakllana boradi. Kichik o'quvchilar ma'naviyatini sog'lomlashtirishda o'qishdarslarining, ya'ni boshlang'ich adabiy ta'limning o'rni beqiyos. O'qituvchi tomonidan o'qish kitobidagi asarlarni to'g'ri idrok etishgayo'naltirilgan o'quvchi mustaqil ishlashga, uqib o'qishga, o'zgalarning fikrlarini ilg'ashga, o'zi va boshqalarning tuyg'ularolamini kuzatishga, o'zgani tuyishga o'rgana boradi. Olamni, Odamniva O'zligini kashf qiladi. O'z ichki "men"ning shakllanishida o'zibevesita ishtirok etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini erta yoshdan matnni o'qib tushunishga tayyorlash ko'p jihatdan o'qituvchining zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Shu sababli o'qituvchi turli usul va metodlardan samarali foydalanishi lozim. Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunishga tayyorlash maqsadida tadqiqot o'tkazildi va qo'llash uchun tavsiya qilindi

Mazmuniy kutish texnologiyasi: Tadqiqot davomida "mazmuniy kutish" texnologiyasi samarali metod sifatida taklif qilindi. Ushbu usulda o'quvchiga matn to'liq o'qib berilmaydi, balki voqeaning bir qismi aytilib, davomiga oid taxminlar so'raladi. Bu jarayon bolaning mantiqiy tafakkuri va matn bilan ichki dialogini rivojlantiradi. Masalan, o'qituvchi ertak boshini o'qib: — "Sizningcha, qahramon keyin nima qiladi?" degan savolni beradi. Natijada bola matnni passiv tinglovchi emas, faol ishtirokchi sifatida qabul qiladi.

Mikro-dialogli o'qish usuli: Maqolada ilk bor "mikro-dialogli o'qish" tushunchasi ilgari suriladi. Ushbu metodda matn kichik qismlarga bo'linadi va har bir bo'lakdan keyin qisqa savol-javob tashkil etiladi. Bu usul bolaning diqqatini uzoq vaqt saqlashga yordam beradi. Oddiy o'qishda bola matn oxiriga yetgunga qadar ayrim ma'lumotlarni unutishi mumkin. Mikro-dialog esa xotira va tushunishni bir vaqtda faollashtiradi.

Ovozli tasvirlash metodi: Bolalarning ko'pchiligi matnni eshitish orqali tezroq anglaydi. Shu sababli maqolada "ovozli tasvirlash" metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda o'qituvchi matnni turli ohang, pauza va hissiyot bilan ifodali o'qiydi. Natijada bola voqeani nafaqat tushunadi, balki his qiladi. Mazkur metod ayniqsa 1–2-sinf o'quvchilarida samarali bo'lib, ularning matnga emotsional bog'lanishini kuchaytiradi. Rasmi fikrlash orqali tushunishni rivojlantirish Ilmiy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, kichik yoshdagi bolalar avval obrazni, keyin so'zni qabul qiladi. Shu bois matn bilan ishlashda rasmi fikrlash elementlarini qo'llash muhimdir. Masalan, matnni o'qishdan oldin qahramon rasmi ko'rsatilsa, o'quvchi mazmunni tezroq anglaydi. Bu usul ayniqsa tasavvuri kuchli bolalarda yuqori natija beradi. Tadqiqotga oid yangi ilmiy qarashlar. Maqolada quyidagi yangi pedagogik yondashuvlar ilgari suriladi: Matnni tushunish avvalo hissiy qiziqishdan boshlanadi; O'qish tezligi emas, mazmunni his qilish muhimroq omildir; Bolaning matn bilan "ichki suhbat" uning tafakkurini rivojlantiradi; Erta yoshdagi o'qish jarayonida vizual va eshitish uyg'unligi kuchli natija beradi; O'qishga majburlash emas, qiziqtirish tamoyili samaraliroq hisoblanadi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni o'qib tushunishga tayyorlash murakkab, ammo muhim pedagogik jarayondir. Mazkur jarayonda bolaning psixologik xususiyatlari, qiziqishi va emotsional holatini hisobga olish zarur. Tadqiqotda tavsiya etilgan mazmuniy kutish, mikro-dialogli o'qish, ovozli tasvirlash va rasmi fikrlash metodlari o'quvchilarning matnni anglash ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodlarni boshlang'ich ta'lim amaliyotiga joriy etish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish va funksional savodxonligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda ongli o'qish, matn mazmunini tahlil qilish, asosiy fikrni ajratib olish hamda mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini

shakllantirish ularning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va didaktik materiallardan samarali foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'qituvchining pedagogik mahorati, darsning qiziqarli tashkil etilishi va o'quvchilarning yosh hamda psixologik xususiyatlarini **ҳисобга** olish matnni tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Natijada o'quvchilarda kitobxonlik madaniyati, mustaqil fikrlash va nutqiy kompetensiyalar shakllanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Pedagogika – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Ona tili o'qitish metodikasi – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2019.
4. Bolalar psixologiyasi – Toshkent: Sharq, 2017.
5. Lev Vygotsky. Tafakkur va nutq rivojlanishi haqidagi ilmiy qarashlar. – Moskva, 1982.
6. Jean Piaget. Child Psychology and Education. – New York, 1972.
7. UNESCO. Reading Literacy and Early Childhood Education Reports, 2021.
8. OECD. PISA Reading Framework. – Paris, 2019.
9. Ta'lim texnologiyalari – Toshkent: Fan, 2021.
10. Pedagogika va Psixologiya bo'yicha zamonaviy ilmiy maqolalar va internet manbalari asosida tayyorlandi